

## “Metrologiya va standartlashtirish” ilmiy-innovatsion laboratoriyasi rasmiy ochilishi

### **“Metrologiya va standartlashtirish” ilmiy-innovatsion laboratoriyasi rasmiy ochilishi**



Bugungi davr g'oyalar va loyihalar orqali amaliyotga o'tishni taqozo qilar ekan, bu esa tabiiyki, mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi omildir. “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti bilan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamkorlikda tashkil etilgan “Metrologiya va standartlashtirish” ilmiy innovatsion laboratoriyasining rasmiy ochilishi buning isbotidir. Ilmiy - innovatsion laboratoriyaning ochilishi chinakam bayram tusini oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.



Ushbu tadbirga universitet rektori, professor Bahodir Suyunovich Mirzayev moderatorlik qila turib ushbu harakat va tashabbusning ahamiyati haqida so'z yuritdi. So'ngra O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining o'rinbosari Hakimov Rahimjon Rasulovich hamda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori Sattarov Dilshod Nigmatovichlarga o'z fikrlarini bildirishlari uchun so'z berdi. “O'zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat korxonasi, “Standartlashtirish, sertifikatlash va texnik jihatdan tartibga solish” ilmiy-tadqiqot instituti hamkor sifatida kelgusidagi istiqbolli rejalarni mo'ljallaganlari e'tiborlidir. Shuni alohida e'tirof etish zarurki, Oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bugungi kunga kelib o'z samarasini bera boshladi.



Kelajak uchun yetuk kadrlar tayyorlash maqsadida talaba yoshlarimizning zamonaviy bilimlar olishi uchun eng yaxshi sharoitlar yaratilib kelinmoqda jumladan, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakultetida bu borada e'tiborga molik ishlar amalga oshirilib, sohaga yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda moddiy texnik bazani mustahkamlash, innovatsion laboratoriyalarni tashkil etish hamda talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti sohaning yetakchi tashkilotlarida o'tkazib kelinmoqda.



Bu loyihani amalga oshirilishiga 2021 - yil 12 - aprelda asos solingan bo'lib, universitet va “O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi” o'rtasida tuzilgan loyiha qiymati qariyb 2.2 milliard so'm bo'lgan memorandum asosida “Metrologiya va standartlashtirish” ilmiy-innovatsion laboratoriyasi tashkil etildi. Tashkil etilgan ilmiy-innovatsion laboratoriyaning vazifalari quyidagilardan iborat:



- metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, birlashtirilgan hududlarda va o'lchash turlari bo'yicha o'lchashlar birligi va ishonchliligini

ta'minlash;

- yuqori aniqlikdagi chiquvchi va namunaviy o'lchash vositalarini saqlash va tegishli darajada saqlab turish;

- davlat metrologiya xizmatini rivojlantirish;

- mavjud yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalari va usullarini takomillashtirish, yangilarini yaratish, o'lchash, nazorat va sinash vositalarini standartlashtirish;

- o'lchash vositalari turini tasdiqlash maqsadida davlat sinovlari bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

- o'lchash vositalarini metrologik attestatlash, qiyoslash va kalibrlash ishlarini tashkil qilish hisoblanib, mazkur bilimlarni o'zlarida mujassam etadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamonaviy o'quv bazasi bo'lib xizmat qiladi.



**Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fakulteti "MATBUOT XIZMATI"**